ISSN 2181-9580

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTLARI

ILMIY-NAZARIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

2023

1-son

Jurnal Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2014-yil 30-iyulda №02-00175 raqam bilan ro'yxatga olingan.

multimediya texnologiyalari vositalarini o‘quv jarayonida qo‘llashning pedagogik-psixologik maqsadga muvofiqligi dolzarb muammo bo‘lib turibdi.

Adabiyotlar:

1. М. Ш. Маматов Бўлажак бошланғич синф ўқитувчилар онгида математик тушунчаларни шакллантиришда мантиқ// Халқ таълими. –Тошкент, 2003. – № 4. – Б. 96-99

2. Ф. А. Рахматова Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларининг математик тафаккурини такомиллаштиришнинг илмий-назарий асослари. Т: Фан ва технология, 2017. 124 б

3. М. М. Куранова Бўлажак бошланғич синф ўқитувчиларида ижтимоий компетенцияларни ривожлантириш методикаси. дисс. 2021 й.

O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLRI VA OMILLARI

Ibadullayev Q.M. – Chirchiq Maktabgacha ta’lim fakulteti dekani, fizika-matematika fanlari nomzodi

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy maktablarni tashkil etishdagi muammolar, xalqaro standartlar asosida o‘quv jarayonini isloh qilish tadqiqiga bag‘ishlangan fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy maktab, o‘quv jarayoni, xalqaro standart, ilmiylik; tizimli va izchillik, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ И ФАКТОРЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Ибадуллаев Г.М. - декан факультета дошкольного образования г. Чирчик, кандидат физико-математических наук

Аннотация. В данной статье обсуждаются проблемы организации современной школы, исследования реформирования образовательного процесса на основе международных стандартов.

Ключевые слова: современная школа, образовательный процесс, международный стандарт, научность; систематичность и последовательность, связь между теорией и практикой.

PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS AND FACTORS OF THE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Ibadullayev Q.M. - Dean of the Faculty of Pre-School Education Chirchik, candidate of physical and mathematical sciences

Annotation. This article discusses the problems of organizing a modern school, research on reforming the educational process based on international standards.

Key words: modern school, educational process, international standard, scientific character; systematic and consistent, connection between theory and practice

Zamon talablariga javob bera oladigan, o‘z faoliyatini maqsadli va aniq reja asosida tashkil etadigan, bilim olish va o‘rganishni ehtiyoj sifatida baholaydigan, olgan bilimlarini real muhitda qo‘llay olish qobiliyatiga ega shaxsni shakllantirish milliy ta’lim modelining ustuvor g‘oyasidir. Globallashuv, axborot oqimi va huruji, ijtimoiy munosabatlarning megalashishi natijasida yosh avlodni ziddiyatli va turlicha murakkab xususiyatga ega nostandart jarayonlarga bardoshli qilib tayyorlash, hamda tez va to‘g‘ri yechim topishga o‘rgatish vazifasini qo‘ymoqda. Ma’nan, aqlan, ruhan, jismonan barkamol bo‘lgan shaxs muammoli vaziyatlarda, ya’ni, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolish, nosog‘lom odatlar va noqonuniy faoliyatlarni emas balki o‘ziga to‘g‘ri yo‘l tanlay oladi. Shuningdek, shaxsning jamiyat oldidagi burchlarini bajara olishi, eng avvalo o‘zini, so‘ngra davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy mezoni sifatida bilim olish jarayoni belgilanadi.

Uchinchi Renessans davrida bugungi avlodning mustaqil va erkin fikrlay olishi, ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga shaxsiy munosabatini bildirishga imkon bermoqda. Ijtimoiy borliqda kechayotgan o‘zgarishlarga nisbatan shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi shaxs faolligini ko‘rsatuvchi muhim jihatlardan biridir. Qolaversa, mustaqil fikr egasi bo‘lgan shaxs o‘z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi. Muvaffaqiyatli ravishda olib borilayotgan ta’limiy islohotlarning ham asosiy maqsadi erkin, mustaqil fikriga ega barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir.

Komil insonni tarbiyalash masalasi barcha davrlarda ham muhim ijtimoiy muammo sifatida o‘rgpnilgan. Xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal (harakat)dan iborat ekanligi ta’kidlansa, [1] islom ta’limoti g‘oyalariga ko‘ra yetuklikning bosh mezoni – ilmlilik, bilimli bo‘lishdir.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham komil inson qiyofasining yoritilishiga alohida ahamiyat berilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy komil insonni shakllantirishning bosh mezoni ilm olish bilan o‘lchaydi [2].

Abu Rayhon Beruniy ham komillikning asosini ilmli bo‘lishda deb hisoblaydi va barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikdir, deya urg‘u beradi [3].

Abu Ali ibn Sino ham kamolotga yerishishning birinchi mezon sifatida bilimli bo‘lishni alohida qayd etadi. Bilimli insonning adolatli bo‘lishi yesa uning yanada yuksalishini ta’minlaydi, deya baholab alloma, adolatni ruhiy lazzat (ruhiy xotirjamlik) ning muhim ko‘rsatkichi ekanligini uqtiradi [4].

Alisher Navoiy asarlarida komil inson muammosi markaziy o‘rinni egallaydi va o‘z orzusidagi komil inson shaxsini asarlarining qahramonlari timsolida gavdalantirishga urinadi. Alloma qarashlarida komil inson quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi borasidagi g‘oya ilgari suriladi: aqlli, axloqli, bilimli, ijodkor, qobiliyatli, dono, kamtar, insonparvar, saxovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, sog‘lom, jismonan baquvvat, mard va jasur [5].

Qomusiy olimlar va sharq allomalari ilgari surgan g‘oyalar komil insonni tarbiyalashni talab etgan bo‘lsa, bu qarashlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Komil inson g‘oyasi globallashuv va mega ijtimoiylashuv davrida shaxsning kompetenligi bilan qiyoslasak bo‘ladi.

Komil insonni tarbiyalash, shaxsni ijtimoiy hayotda moslashuvchanligini oshirish, kompetentligini rivojlantirish maktab davriga, o‘quv jarayonini tashkil etishga bog‘liqdir.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quv jarayonida direktor, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, sinf rahbari, fan o‘qituvchilari va o‘quvchilar faol ishtirok etadi. O‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar tegishli fanlar doirasida yangi bilimlarni egallaydilar.

Boshlang‘ich ta’limda o‘qish, yozishni o‘rganib, komunikativ kompetensiyasi shakllana boshlaydi, qo‘shish, ayrish amallari asosida matematik savodxonligi rivojlanadi. Yuqori sinfga o‘tgan o‘quvchilarni hayotga moslashuvchanligini va kasbga yo‘naltirish maqsadida o‘tiladigan fanlardan yangi bilimlarni chuqur o‘rganish, umumiy va xususiy tomonlarini tahlil qilish, muammoli topshiriqlar, kreativ masalalar yechishga o‘tadilar. Mavzu bo‘yicha xulosalar qilishga, o‘z fikrlarini asoslab berish, taqqoslashni o‘rganadilar. O‘qitish jarayonining samarali bo‘lishi o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga bog‘liq. O‘quvchilar darslarda katta ishtiyoq va qiziqish bilan ilm olishga intilsa, o‘qituvchi o‘quvchilarning umumiy bilish darajasidan kelib chiqib, interfaol, muammoli va kreativ tarzda darslarni tashkil etsa o‘quv jarayoni maqsadli tashkil etilgan bo‘ladi. O‘quv jarayoni ishtirokchilaridan faollik, hamfikrlikni talab qiladi. Bu jarayonda maqsadlar mushtarakligi katta ahamiyatga ega. O‘qituvi kasbiy kompetensiyalarga amal qilib, axloq va vijdon

normalariga tayanib o‘quvchilarga bilim bersa, o‘quvchilar esa qiziqishlari va qiziqmasliklarini ro‘kach qilmagan holda umumiy o‘rta ta’limning majburiy-ixtiyoriy tendensiyalariga amal qilib hamda tayanch kompetensiyalari shakllanishi uchun bilim olishlari kerak.

Umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarni kasb tanlashga va hayot qonuniyatlarini yechishi uchun yordam beradigan hamda milliy ta’lim tizimida xalqaro standartlarga ustuvorlik berish asosida tegishla fanlar o‘qitiladi. O‘qish va o‘qitish faoliyati o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismidir. o‘qitish – bilimlar, malakalar, ko‘nikmalar hosil qilish va o‘zlashtirish jarayonidir. O‘qitishning asosiy vazifasi – yosh avlodni bilimlar bilan qurollantirishdir.

Yoshlarga bilim berishda nimalarni asos qilib olish, nimaga va qanday o‘rgatish yo‘llarini pedagogikaning didaktika qismi o‘rganadi.

Didaktika grekcha so‘z bo‘lib, «Didayko» - o‘qitish, «Didasko» - o‘rgatuvchi degan so‘zlardan kelib chiqqan bo‘lib, ta’lim nazariyasi degan ma’noni anglatadi [6]. Qaysi fan bo‘lishidan qat’iy nazar didaktika umumiy qonuniyatlarini hisobga olgan holda o‘tiladi, chunki u har bir o‘quv fanini o‘qitish usullari uchun umumiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari: ta’lim prinsiplari, ta’lim mazmuni, metodlari, o‘qitishning tashkiliy shakllari, o‘qish, o‘qitish. Ta’lim prinsiplari ya’ni ta’lim qoidalari o‘qituvchining o‘z faoliyatini rejalashtirishi va o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashlarida rioya qilishlari kerak bo‘lgan asosiy qoida, yo‘l-yo‘riq va ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillarda olimlar tomonidan yaratilgan pedagogik adabiyotlarda ta’limni boshqarish qoidalari turlicha guruhlashtirilmoqda. Ana shularga asoslangan holda quyidagicha ta’lim qoidalarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- ilmiylik;
- tizimli va izchillik;
- tarbiyaviylik;
- nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi;
- faollik va mustaqillik qoidasi;
- ko‘rsatmalilik;
-individuallik;
- umumiylik;
- o‘zlashtirish va natijadorlik kabi qonuniyatlarga ta’lim jarayonida amal qilish kerak [7].

Ilmiy tadqiqod ishimizning ob’ekti bo‘lgan o‘quv jarayoni tushunchasi ta’lim jarayoni tushunchasi bilan bir qarashda bir xillikni anglatadi. Bu ikki tushunchaning farqli tomonlarini ko‘rsatib o‘tmoqchimiz:

Ta’lim jarayoni umumiylikni, o‘quv jarayoni xususiylikni anglatadi. Ta’lim nazariyasining natijasi ta’lim jarayonida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida ta’lim mazmuni, metodlari, o‘qitishning tashkiliy shakllari, o‘qish, o‘qitish faoliyati aks etadi. O‘qish va o‘qitish faoliyati o‘quv jarayonini tashkil etadi. O‘quv jarayoni esa ta’lim jarayonining tarkibiy qismlaridan biridir.

Ta’lim mazmuni va maqsadlari asosida o‘quv jarayoni tashkil etiladi. O‘quv jarayonini tashkil etishda ma’lum qonun va me’yorlarga amal qilinadi. O‘quv jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, Xalq ta’limi vazirligi va boshqa tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan qaror va farmonlarga mutanosib ishlar tashkil etiladi. O‘quv jarayoni yil avvalida tasdiqlangan o‘quv rejasi asosida amalga oshiriladi. O‘quv rejasi katta ahamiyatga ega bo‘lgan davlat hujjatidir. O‘quv rejasi – barcha umumiy o‘rta ta’lim maktablarida amal qilinishi lozim bo‘lgan davlat hujjatidir. Unda boshlang‘ich sinflar va yuqori sinf o‘quvchilari o‘rganishi lozim bo‘lgan o‘quv fanlari va o‘sha fanlar uchun ajratilgan o‘quv soatlari ko‘rsatilgan bo‘ladi. Xalq ta’limi vazirligi maktablarning o‘quv jarayonini tashkil etishi uchun xizmat qiladaigan o‘quv rejasini tasdiqlaydi.

O‘quv jarayonida o‘qish va o‘qitish faoliyati amalga oshiriladi. Bu faoliyatda o‘qituvchining maqsadi o‘qitish, o‘quvchi esa o‘qish va o‘rganishni maqsad qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning rivojlanishi va olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olishi, duch keladigan muammolarni hal qilishni o‘rgatadi. O‘qish va o‘qitish faoliyati maxsus tashkil etilidigan, ikki tomonning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan jarayon va bu jarayonga o‘qituvchi rahbarlik qiladi. O‘quv jarayonida o‘quvchiga ta’lim va tarbiya beriladi. O‘quvchi o‘rganganlari asosida, mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘radi, o‘rganish jarayoni nihoyasiga yetgani sari rivojlanib boradi.

Adabiyotlar

1. Sayidaxmedov N.S., Ochilov A., Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi.- RTM, 2000, 155 b.

2. Nishonaliev U. Ta’lim standarti va pedagogik innovasiyalar. – «Xalq ta’limi», 1999, 6-son.

3. Ochilov M. O‘qitish metodi – pedagogik texnologiyaning asosiy komponenti – «Xalq ta’limi», 1999, 6-son 32-35-betlar.

4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi «Nasaf», 2000, 126 -b.

5. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003, 166 - b.

6. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnalogiyalar. O‘quv qo‘llanma.-T.: Moliya, 2003, 188 b.

7. Фарберман Б.Л. Прогресивные педагогические технологии – Т.: 1999 г 84 стр.